




O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari statistikasi

2017 yilning 1 noyabr holatiga O'zbekiston Respublikasida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 72 ta oliy ta'lim muassasasi va 19 ta filiallar mavjud bo'lib, ularning tarkibida 4 ta akademiya, 7 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, 27 ta universitetlar va 4 ta oliy diniy ta'lim muassasa hamda filiallari faoliyat yuritmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari (OTM) va filiallarining hududlar kesimida taqsimlanishi




1. Bakalavriat bosqichi

2017/2018 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarga asosan, 2017/2018 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 80822 nafar, shu jumladan 18439 nafari davlat grantlari asosida, 62383 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan.

2017/2018 o'quv yilida qabul qilingan talabalarning hududlar kesimida taqsimlanishi




2017/2018 o'quv yili boshida qabul qilingan talabalarning 71838 nafari kunduzgi, 8984 nafari 20 ta oliy ta'lim muassasasi va 1 ta filialda tashkil etilgan sirtqi kurslarda ta'lim olayotgan bo'lib, sirtqi kurslarga qabul qilinganlarning 77,8 foizini qizlar tashkil etadi. Ma'lumot uchun, 2016/2017 o'quv yilida jami 110 nafar talaba sirtqi kurslarga qabul qilingan.

Bakalavriyat bosqichi talabalarining o'qiydigan kurslari bo'yicha taqsimlanishi

Oliy ta'lim muassasalaridagi bakalavriyat bosqichi talabalarining umumiy soni 288471 nafarni tashkil etib, ularning asosiy qismi 4 yillik kurslarda ta'lim olmoqda. Ayrim oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatida ta'lim olish muddati ta'lim yo'nalishlariga mos ravishda 3 yildan 7 yilgacha tashkil qiladi.


O'qiydigan kurslari bo'yicha bakalavriyat bosqichi talabalari soni, kishi



Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyat bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalarning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi

Jami ta'lim olayotgan bakalavr bosqichidagi talabalar soni 288471 nafarni tashkil etgan bo'lib, gumanitar sohada 121446 nafar, ijtimoiy soha, iqtisod va huquq yo'nalishida 27418 nafar, ishlab chiqarish va texnik sohada 85539 nafar, qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishida 23479 nafar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot yo'nalishida 18879 nafar, xizmatlar sohasida 11710 nafar talabalar ta'lim olmoqda.


Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar, %



Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyat bosqichi bitiruvchilari

2017 yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 62900 nafarni tashkil etib, ularning 18954 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2017 yilda bakalavriyat bosqichini bitirganlarning 23995 nafari qizlar tashkil etadi.

Bakalavr bosqichini 2017 yilda bitirgan talabalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, kishi




Bakalavriyat bosqichi bitiruvchilarining 43,8 foizi gumanitar soha, 10,7 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq yo'nalishi, 28,0 foizi ishlab chiqarish va texnik sohasi, 7,4 foizi qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishi, 4,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot yo'nalishi, 5,6 foizi xizmatlar sohasi bo'yicha bitirgan.

2. Magistratura bosqichi

Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2017/2018 o'quv yili uchun magistraturaga jami 4857 nafar qabul qilingan talabalardan, 34,8 foizi (1690 nafar) davlat granti asosida, 65,2 foizi (3167 nafar) to'lov shartnoma asosida qabul qilindi. 100 qabul qilingan o'ringa o'rtacha 263 ta ariza topshirilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 24,1 foizga magistratura talabasi bo'lish imkoniyati oshdi.

100 ta o'ringa to'g'ri keladigan arizalar soni, birlik



Magistratura bosqichi talabalarining o'qiydigan kurslari bo'yicha taqsimlanishi

Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni 9218 nafarni tashkil etib, ulardan 3089 nafari davlat grantlari asosida, 6129 nafari shartnoma asosida ta'lim olmoqda. Jami talabalarning 37,5 foizini (3453 nafar) qizlar tashkil etgan bo'lsa ularning, 30,8 foizi (1064 nafar) davlat grantlari asosida ta'lim olmoqda.


O'qiydigan kurslari bo'yicha magistratura bosqichi talabalari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi

	1 kurs	2 kurs	3 kurs
O`zbekiston Respublikasi	4866	3880	472
Qoraqalpog'iston Respublikasi	112	72	-
viloyatlar:			
Andijon	188	109	92
Buxoro	164	96	11
Jizzax	37	18	-
Qashqadaryo	97	70	-
Navoiy	70	32	-
Namangan	97	41	-
Samarqand	505	314	71
Surxondaryo	45	26	-
Sirdaryo	11	-	-
Toshkent	97	93	-
Farg'ona	141	56	-
Xorazm	59	26	-
Toshkent sh.	3243	2927	298

Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalarining mutaxassisliklar bo'yicha taqsimlanishi

Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni 9218 nafarni tashkil etib, ulardan 27,4 foizi gumanitar sohada, 24,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq mutaxassisligi bo'yicha, 23,7 foizi ishlab chiqarish va texnik sohada, 4,8 foizi qishloq va suv xo'jaligi mutaxassisligi bo'yicha, 17,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot mutaxassisligi bo'yicha, 2,3 foizi xizmatlar sohasida ta'lim olmoqda.


Mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining magistr bosqichida ta'lim olayotgan talabalar soni, kishi



Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichi bitiruvchilari

2017 yilda oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichining 5594 nafar bitiruvchilaridan, 1803 nafari gumanitar soha, 1263 nafari ijtimoiy soha, iqtisod va huquq mutaxassisligi bo'yicha, 1431 nafari ishlab chiqarish va texnik sohada, 312 nafari qishloq va suv xo'jaligi, 668 nafari sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 117 nafari xizmatlar sohasiga oid mutaxassislikka ega bo'ldi.


Ta'lim sohalari bo'yicha magistratura bitiruvchilari, %



Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalar to'g'risida


2017/2018 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalaridagi jami 297689 nafar talabalar ta'lim olayotgan bo'lib, ularning 119180 nafarini qizlar tashkil etadi. Talabalarning 27,1 foizi davlat grantlari asosida, 72,9 foizi shartnoma asosida ta'lim olmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %



Bakalavriat bosqichiga jami 786121 ta, magistraturaga 12754 ta ariza topshirilgan bo'lib, ulardan 8555 tasi hisobot yilida harbiy xizmatni tugallagan shaxslar tomonidan tomonidan topshirilgan.


Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni, kishi



Shuningdek 2017 yilda bakalavriat bosqichini tamomlagan 62900 nafar talabalarning 4,5 foizi (2848 nafari) magistratura bosqichida ta'lim olishni davom ettirmoqda. Ularning 36,5 foizini qizlar tashkil etadi.

2016 yilning 1 noyabridan 2017 yilning 1 noyabriga qadar bakalavr bosqichi talabalarining 8582 nafari oliy ta'lim muassasasidan ketgan bo'lib, ulardan 2025 nafari o'zlashtirilmasilgi sababli, 410 nafari kasalligi tufayli 600 nafari kontrakt to'lovini bajarmaganligi uchun, 2980 nafari o'qishni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirganligi sababli hamda 2567 nafari boshqa turli sabablarga ko'ra ketgan.

Bakalavriat bosqichida ta'lim muassasasidan ketgan talabalarning sabablari bo'yicha taqsimlanishi, %



Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarining 2018 yil 1 yanvar holatiga to'ladigan yoshi bo'yicha taqsimlanganda, 18 yoshgacha bo'lgan talabalar 3,6 foizini, 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan talabalar 78,1 foizini, 25 yosh va undan katta yoshdagi talabalar 18,3 foizini tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalar sonining yoshi bo'yicha hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi

	Jami	17 yosh	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta
O'zbekiston Respublikasi	297689	704	10090	28552	38770	45996	48519	40104	30448	54506
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19447	4	503	2003	2525	3500	2919	2403	1761	3829
<i>viloyatlar:</i>										
Andijon	19184	25	400	1394	2347	2812	3225	2824	2141	4016
Buxoro	15939	16	596	1840	2146	2427	2519	2150	1690	2555
Jizzax	12530	4	1579	1993	2495	1615	1803	1029	812	1200
Qashqadaryo	15883	3	571	1172	1720	2559	2885	2352	1800	2821
Navoiy	9683	1	210	763	1432	1866	1655	1198	986	1572
Namangan	13319	4	179	801	1479	1946	2235	2205	1605	2865
Samarqand	29125	12	563	1982	3171	4353	5110	4614	3345	5975
Surxondaryo	9275	3	72	434	907	1028	1212	1378	1406	2835
Sirdaryo	4611	1	63	249	603	547	564	633	494	1457
Toshkent	8089	4	149	735	776	1113	1314	1128	859	2011
Farg'ona	21466	6	350	1814	3050	3537	3498	2884	2212	4115
Xorazm	10450	-	272	1593	995	1537	1812	1472	914	1855
Toshkent sh.	108688	621	4583	11779	15124	17156	17768	13834	10423	17400


Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalarining o'qitish tillari bo'yicha taqsimlanishi

Oliy ta'lim muassasalaridagi jami talabarni ta'lim olib boriladigan tillari bo'yicha taqsimlanganda, o'zbek tilida 77,7 foizini, rus tillarida 14,9 foizini, qoraqalpoq tilida 4 foizini, ingliz tilida 2,9 foizini, tojik tilida 0,2 foizini, qozoq tili va boshqa tillarda ta'lim berilayotgan talabalar ulushi 0,3 foizini tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida stipendiya oluvchi talabalarining reyting ballari bo'yicha taqsimlanishi

Oliy ta'lim muassasalaridagi jami stipendiya oluvchilarning 18972 nafari maksimal reyting baliga ega bo'lgan talabalar (86-100 %), 65123 nafari yuqori reyting baliga ega bo'lgan talabalar (71-85 %), 189809 nafari o'rta reyting baliga ega bo'lgan talabalar (55-70 %) tashkil etadi.


Oliy ta'lim muassasalaridagi turlari bo'yicha stipendiya oluvchi talabalar soni, kishi



Oliy ta'lim tizimining xorijiy davlat bilan hamkorligi

Bundan tashqari, joriy yilda mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlardan 276 nafar yoshlar talabalikka qabul qilingan bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 126 nafarga (84 foizga) ko'paydi. Ularning asosiy qismini mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari, xususan Turkmaniston (120 nafar), Rossiya Federatsiyasi (56 nafar), Qozog'iston (42 nafar) aholisi tashkil etadi.

2017/2018 o'quv yilida mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlaridan qabul qilingan talabalar soni, kishi




Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida chet el mamlakatlaridan jami 709 nafar, ulardan uzoq xorij davlatlaridan 98 nafar talaba ta'lim olmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan mutaxassislar tayyorlash

2017 yilda barcha oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni 68494 nafarni tashkil etib, ulardan 62900 nafari bakalavr bosqichini, 5594 nafari magistratura bosqichini muvaffaqiyatli tugatdi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilaridan 67326 nafari kunduzgi, 1168 nafari esa sirtqi kurslarni, shuningdek 20630 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olib, bakalavr hamda magistr darajasiga ega bo'ldi.


2017 yilda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning 25934 nafari yoki 37,9 foizini qizlar tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasalarini 2017 yilda bitirgan talabalarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi



Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari tarkibi


Hududlar kesimida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni, kishi




Oliy ta'lim muassasalarida 25107 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan fan doktor ilmiy darajaga ega bo'lganlari 1470 nafarni hamda fan nomzodlari 6011 nafarni tashkil etmoqda.

Shuningdek ilmiy unvoni bo'yicha professorlar 1078 nafarni, dotsentlar 4091 nafarni tashkil etadi.

Hududlar kesimida oliy ta'lim muassasalari ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchi xodimlari soni, kishi



Hududlar kesimida oliy ta'lim muassasalari ilmiy unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchi xodimlari soni, kishi



**Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas`ul:

X.Murodxujayev